

PAPER

GEODEZIYA, KARTOGRAFIYA SOHASIDA MUTAXASSISLIKLAR TAYYORLASH VA ULARGA BO'LGAN TALABNI ANIQLASH

Xodjayeva Muhayyo Ulmasovna^{1,*}

¹Qarshi Davlat Texnika Universiteti assistent o'qituvchisi

* muhayyoolmasovna@gmail.com

Abstract

Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida oliy ta'lim sohasida jiddiy islohotlar o'tkazilmokda. Jumladan, o'kuv jarayoniga yangi pedagogik texnologiya joriy etilmokda, ayniqsa talabalarni mustaqil ish olib borishga, mustaqil fikrlashga o'rgatish bosh masalaga aylanmoqda. Maqolada Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining mazmun va mohiyati, geodeziya, kartografiya sohasida oliy ma'lumotli mutaxassislarga bo'lgan talabni aniqlashga doir nazariy bilimlarni shakllantirish haqida so'z boradi.

Key words: Oliy ta'lim, konsepsiyasi, o'kuv jarayoni, mustaqil ish, nazariy, metodologiya, mutaxassis, modernizatsiya, ta'lim texnologiyalari, kadrlar, inson kapitali, mehnat bozori, kreativ, texnopark, forsait, texnologiyalar transferi, startap, akselerator, geodeziya, kartografiya, topografiya.

Kirish

Bugungi kunda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, "Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" asosida oliy ta'lim sohasida jiddiy islohotlar o'tkazilmokda. Jumladan, o'kuv jarayoniga yangi pedagogik texnologiya joriy etilmokda, ayniqsa talabalarni mustaqil ish olib borishga, mustaqil fikrlashga o'rgatish bosh masalaga aylanmoqda.

Binobarin, uning tarkibiy tuzilmasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Shularni nazarda tutib, mazkur fan bo'yicha ushbu darslik tayyorlandi. Unda mikro, mezo va makro darajalarda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida qo'llanidigan boshkaruv prinsipi — usullari, vositalari, shakllari, nazariy va metodologik masalalari keng yoritilgan. Boshqarishni tashkil qilishda mutaxassislarni to'g'ri tanlash va joy-joyiga qo'yish xal qiluvchi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va

iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-oktabrda PF-5847 sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

Konsepsiya O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi 4 bob va 9 paragrafdan iborat:

1-bob. Umumiy qoidalar

2-bob. Oliy ta'lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar

3-bob. Oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari

4-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar.

Quyidagilar oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi:

– mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar

tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish;

- oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

- sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlashdan iboratdir.

Sohada malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish va ta'lim jarayonini amaliyot, ilm-fan va sanoat bilan uzviy bog'lash. Boshqarishdagi lavozimlarga yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan, shu vazifaga muvofiq keladigan zarur malaka va tajribasi bo'lgan hamda tashkilotchilik va ishchanlik qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar tanlab olinishi va tayinlanishi lozim.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili

Mustaqil davlatimizning siyosati, jamiyat rivojlanishining hozirgi darajasi, uning madaniyati, fan va texnikasi, bozor iqtisodiyotiga o'tish, oliy ta'lim tizimida turgan yangi vazifalar faqat sifat jihatdan yangi bo'lgan ta'lim mazmuni va texnologiyasini, balki, respublika iqtisodiy rivojlanish dinamikasini tarixan shakllangan vaziyatni xo'jalik yuritishning zamonaviy sharoitlarida hisobga oladigan bozor iqtisodi qonunlariga rioya etadigan mutaxassislar tayyorlash va bunga bo'lgan talab yo'nalishini belgilashga yangicha yondoshishni ham talab etadi.

Davlat miqyosida mutaxassislar tayyorlash, ishga joylashtirish va bandligini davlat boshqaruvi mexanizmini yaratish ayniqsa, muhim bo'lib turibdi. Bu oliy ta'limda oliy ta'lim muassasasiga talaba qabul qilish rejasi to'la ravishda xalq xo'jaligining amaldagi talablariga mos kelishi kerak deganidir.

Topografo-geodezik ishlab chiqarishda geodezik ishlarni bajarish uchun yetakchi malakali mutaxassislar kerak bo'ladi. Topografo-geodezik ishlab chiqarishda ish yuritayotgan tashkilot va korxonalarda xodimlar injener-texniklar, xizmatchilar, ishchilar va boshqalarga bo'linadi.

Injener-texniklar ishlab chiqarishni tashkillashtiradi vaboshqaradi. O'zlari guruh rahbarlari sifatida berilgan ishlarni bajaradi.

Topografo-geodezik ishlab chiqarishda mutaxassislarni quyidagi institutlarda tayyorlaydi, Toshkent arxitektura qurilish instituti, Toshkent Davlat milliy universiteti, Toshkent Davlat texnika universiteti, Samarqand Davlat arxitektura qurilish instituti va Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Boshqaruvchi ishchilarga quyidagilar kiradi:

1. Rahbarlar (korxona, institutlar, ekspeditsiyalar) va ularning o'rinbosarlari.

2. Mutaxassislar (institut, korxona bo'lim, bosh indenerlar).

3. Texnik xodimlar (kotiba, xisobchi va boshqalar).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida topografo-geodezik tashkilotlarda raqobat kuchayib kadrlar qobiliyati, bilimi yuqori bo'lishi talab qilinadi. Bozor iqtisodiyotida rahbarlar va mutaxassislarni malakasini doimiy o'sishini talab qiladi.

Geodeziya va kartografiya sohasida yaqin yillarda sohani rivojlanishini ta'minlaydigan kadrlar siyosati bo'lishi va soha mutaxassislari yuqori malakali va tajribali bo'lishlari shart.

Mutaxassislar malakali bo'lishlari uchun ular o'zlarining sohalarida kamida 3 yildan 5 yilgacha ishlagan bo'lishlari soha mutaxassislari yuqori malakali va tajribali bo'lishlari kerak.

Natijalar va muhokama

Keyingi yillarda mutaxassis xodimlarga bo'lgan talab keskin oshdi, lavozim sifat va miqdor ko'rsatkichlari o'zgardi, ularni oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan almashtirish zaruriyati yuzaga keldi, ishga qabul qiluvchilar ko'p hollarda tegishli tarzda diplomga emas, balki xodimning ishni qay darajada bilishligi, kasbiy mahoratiga e'tibor bermoqdalar. Bu iqtisodiyot tarmoqlarining barcha sohalar bo'yicha xalqaro darajadagiga mos keladigan bilimga ehtiyoj paydo bo'ldi deganidir. Vaholanki, ko'pgina oliy ta'lim muassasalari mehnat bozori ehtiyoji va bozor talablariga javob bera olmaydi. Natijada mutaxassislarning bir qismiga qo'shma, xususiy, chet el va mamlakatimizdagi boshqa korxonalarda mutlaqo talab yo'q. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislarni parallel tayyorlash kuzatilmoqda (ayni bir ixtisoslik bo'yicha turli oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlanmoqda, vaholanki viloyatlarda ularga talab yo'q. Bular barchasi oliy ta'lim obro'yini tushirmoqda mutaxassislar tayyorlash sifatiga salbiy ta'sir etmoqda. Bu vaziyatni o'zgartirish uchun ya'ni oliy ma'lumotli mutaxassislardan foydalanish samarasini oshirish va ta'limda davlat mablag'idan maqsadga muvofiq foydalanish uchun quyidagilar alohida ahamiyat kasb etadi:

- oliy ta'limni yangicha ixtisoslashtirishning (magistratura va bakalavriat ta'lim yo'nalishini ixtisoslari ro'yxati) oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan lavozimdorlikka mos kelish darajasini, ya'ni mamlakat iqtisodiyot tarmoqlaridagi lavozimlar bilan mutaxassislar yetishtirish mutanosibligini belgilash;

- umumiy talablarga muvofiq oliy ma'lumotli mutaxassislar bilan ta'minlanganlik tarmoq meyorlarini ishlab chiqarish yangi tavsiflovchisida qabul qilingan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha umumiy va qo'shimcha talabalarni aniqlash;

- tarmoq kengayishi va mehnat murakkabligini sifat jihatidan takomillashtirish bilan bog'liq mutaxassislarga talabni aniqlash. Bunda, albatta quyidagilar e'tiborga olinishi kerak;

- ularning turli sabablarga ko'ra ishdan ketishi –tabiiy ketish, migrasiya, xodimlar qo'nimsizligi va h.k.;

- oliy ta'lim mutaxassislari, mintaqalar yo'nalishlari (oliy ta'lim ixtisosliklari bo'yicha bakalavriat va magistratura) bo'yicha talabalar qabul qilishning talab bilan mos kelishi, ya'ni oliy ta'lim har bir yo'nalish bo'yicha talabning tasniflovchi, tasniflovchi va davlat standartiga mos kelish;

- oliy ma'lumotli mutaxassislarga istiqboldagi talabni belgilash bo'yicha tarmoq uslubiyotini yaratish.

Mutaxassislarga bo'lgan talabni meyor va meyoriylik asosida istiqboli ularning turli xillaridan foydalanishga asoslanadi. Tarmoq mutaxassislar mehnati sarflanadigan sohaga o'ziga xosligiga bog'liq holda qiymat yoki natura holidan ifodalanadigan ishlab chiqarish meyori yoki samaradorlikdan foydalanish mumkin.

Zamonaviy iqtisod va ijtimoiy taraqqiyot o'ziga xosligi shundaki, keng xususiyashtirish faol tadbirkorlik, chet el investitsiyasi, aksiyadorlik jamiyatlari, assosiasiyalar, korporasiyalar vujudga kelmoqda, turli jamoat birlashma va tashkilotlari shakllanmoqda, boshqa tuzilmaviy siljishlar yuz bermoqda, bular mutaxassislarga, ularning tayyorgarligiga, ishga joylashuviga, samarali foydalanilishiga alohida talab qo'yimoqda hamda kasbiy ta'limning moliyaviy shakllanishiga va moddiy-texnologik ta'minlanishiga ta'sir etmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib shuni aytganda mutaxassislarga bo'lgan talabni istiqboliga bo'lgan, yuqorida bayon etilgan yondashishlarni turli kombinasiyalarda foydalanish maqsadga muvofiq. Muhimi, iqtisod tarmog'i (viloyat, mintaq yoki korxona)ning mavjud ahvoli va samarali talqinlarni oqilona e'tiborga olinishidir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'zda tutilgan ta'lim xizmati monitoringi va talab istiqboli moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy sohada yuqori malakali xodimlar yetishtirish hamda qayta yetishtirish – mutaxassislarga bo'lgan talabni o'rganishni taqozo etuvchi mujassam vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xodjayev IV., Tog'ayeva D.U. "Geodezik, kartografik va kadastr ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va uning iqtisodiyoti" T-2013
2. Pardayev M.Q., Mamasoatov T.X., Pardayev O.M. Modernizatsiya, diversifikatsiya va innovatsiya-iqtisodiy o'sishning muhim omillari, Monografiya- T.: "Navro'z", 2014, 38 bet.
3. Ergashev R.X., Tursunov I.E., Ravshanov A.D., Qurbonov A.B. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. – T.: Voris-nashriyot, 2020, 464 bet
4. Ergashev R.X. Innovatsion iqtisodiyot. 2019, 398 bet.
5. Яркина Т.В. "Основы экономики предприятия" Санкт-Петербург 2012 г.
6. Ravshanov A.D "Geodeziya va kartografiyada ishlab chiqarishni rejalashtirish, tashkil qilish, boshqarish va uning iqtisodiyoti" - (darslik),- 2024. -341 b.
7. Xodjayeva M. U. "Top geod ish modernizatsiya qilish" Maqola
8. Xodjayeva M. U. "Topografo-geodezik ishlab chiqarishda iqtisodiy tahlilning pog'onalari va uslublari". Maqola